

6-sinf. Bilimlar bellashuvi uchun 2-test.

1. Ifodaning qiymatini toping: $10 - 2\frac{1}{4} : 3,75 + (2,5 - 1\frac{1}{3}) \cdot 6$

A) $16\frac{2}{5}$ B) $15\frac{2}{5}$ C) $16\frac{1}{5}$ D) $16\frac{3}{5}$

2. 24,5ning 4,2% ini toping.

A) 0,029 B) 1,029 C) 2,029 D) 1,29

3. O`zaro teskari sonlarni toping:

A) $2\frac{1}{7}$ va $\frac{7}{15}$ B) 0,4 va $\frac{3}{2}$ C) 2,5 va 0,3 D) 0,7 va $\frac{3}{7}$

4. Tenglamani yeching: $(\frac{2}{5}x - 2\frac{2}{3}) \cdot 15 = 2$

A) 8 B) 6 C) 7 D) 5

5. Ifodani soddalashtiring: $3\frac{5}{7} \cdot 2\frac{5}{8}y \cdot 1\frac{11}{13}$

A) 16y B) 17y C) 19y D) 18y

6. O`lchamlari $6\frac{2}{5}$ m, $2\frac{1}{4}$ m, $1\frac{7}{8}$ m bo`lgan to`g`ri burchakli parallelepipedning hajmini toping.

A) 27 m^2 B) 27 m^3 C) 9 m^3 D) 54 m^3

7. To`g`ri to`rtburchakning bo`yi $8\frac{2}{5}$ m, eni esa undan $\frac{9}{10}$ m qisqa. To`g`ri to`rtburchakning yuzini toping.

A) 63 m^2 B) 64 m^2 C) 60 m^2 D) 65 m^2

8. Birinchi bankada $\frac{21}{25}$ kg murabbo, ikkinchi bankada esa $\frac{17}{20}$ kg murabbo bor. Qaysi bankada murabbo ko`proq?

A) 2-bankada B) 1-bankada C) ikkalasida teng D) 1-bankada 0,01 kg ga ko`p

9. Taqqoslang: $a = 0,675$, $b = \frac{16}{25}$, $c = \frac{11}{16}$

A) $a < b < c$ B) $b < a < c$ C) $c < a < b$ D) $b < c < a$

10. Radiusi 2,8 m bo`lgan doiraning $\frac{5}{7}$ qismini yuzini toping (π ni o`ndan birlar xonasigacha yaxlitlang).

A) $17,36 \text{ m}^2$ B) $17,26 \text{ m}^2$ C) $16,36 \text{ m}^2$ D) $17,3 \text{ m}^2$

11. 85 km masofa 1:1000000 masshtabli xaritada qanday uzunlikdagi kesma bo`ladi?

A) 8,5 m B) 805 sm C) 0,85 sm D) 8,5 sm

12. Ifodaning qiymatini toping: $\left| -1\frac{1}{7} \right| : \left| +\frac{4}{7} \right|$

A) -2 B) 2 C) $-1\frac{4}{49}$ D) $1\frac{4}{49}$

13. $- \left(- \left(-5\frac{1}{2} \right) \right)$ soniga qarama-qarshi sonni toping

A) 5,5 B) $-5\frac{1}{2}$ C) $\frac{2}{11}$ D) $-\frac{2}{11}$

14. Detal ikki qismdan iborat. Detalning bir qismi $\frac{3}{10}$ kg, ikkinchi qismi esa undan $\frac{3}{20}$ kg ortiq. Butun detalning massasi qancha?

A) 1,5 kg B) 1 kg C) 0,75 kg D) 0,6 kg

15. Tenglamani yeching: $\frac{3}{4} = \frac{9}{x+8}$

A) 6 B) 20 C) 4 D) 5

16. 300 tonna yoqilg`i tayyorlab qo`yilgan. Yanvar oyida yoqilg`ining 13,5% i, fevral oyida esa 19,5% i ishlatildi. Fevral oyida yanvar oyidagiga qaraganda necha tonna ko`p yoqilg`i ishlatilgan?

A) 50 t B) 99 t C) 17 t D) 18t

17. $1\frac{7}{8}$ qismi 4,5 ga teng bo`lgan sonni toping .

A) 2,4 B) 2,1 C) 24 D) 4,2

18. Ifodani soddalashtiring: $\frac{3}{x} + \frac{9}{7x}$

A) $\frac{30}{7x^2}$ B) $\frac{6}{7x}$ C) $\frac{30}{7x}$ D) $\frac{6}{7x^2}$

19. Ifodaning qiymatini toping: $\left(3\frac{1}{3} - 2\frac{7}{9}\right)^2 \cdot \left(1\frac{1}{5}\right)^2$

20. Aylanasining uzunligi 6,28 m bo`lgan doiraning yuzini toping ($\pi \approx 3,14$).

21. 5,25; 6,75; 18,6 sonlarining o`rta arifmetigini toping.

22. Olti ishchi ishni 4 soatda bajarishadi. Shu ishni 3 soatda bajarish uchun nechta ishchi kerak bo`ladi?

23. Keltirilgan kartoshkaning 40%i sotildi , so`ng qolganing 30%i sotildi. Kartoshkaning necha %i qoldi?

24. K nuqta MN kesmani ikkita MK va KN kesmalarga ajratadi. MK kesma KN kesmadan $1\frac{1}{8}$ marta kichik. Agar MN=13,6 sm bo`lsa, MK va KN kesmalarning uzunligini toping.

25. To`g`ri burchakli parallelepipedning bo`yi 1,5 sm, u enidan 3 marta katta , balandligi esa enidan 0,3 sm katta. To`g`ri burchakli parallelepipedning hamma qirralar uzunligining yig`indisini toping.